

O'SMIRLARDA – DEVIANT HULQ-ATVOR KELIB CHIQISH SABABLARI VA ULARNI OLDINI OLISH

1.Maxmatqulov Ilyos Sadullo o'g'li

2.Boitov Anvarjon Abruyevich

3.Sadinov Shaxzod Sharafiddinovich

1.Leytenant, Urgut tuman IIB JXX HPB VYBIG VYMB inspektor psixologi.

2.Leytenant, Urgut tuman IIB JXX HPB VYBIG VYMB inspektor psixologi.

3.Leytenant, Urgut tuman IIB JXX HPB VYBIG VYMB inspektor psixologi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7762021>

Bugungi tez o'zgarayotgan dunyo insoniyat ayniqsa, yosh avlod oldida yangi-yangi buyuk imkoniyatlar ochmoqda. Shu bilan birga, ularni ilgari ko'rilmagan turli yovuz xavf-xatarlarga ham duchor qilmoqda. G'arazli kuchlar sodda, g'o'r bolalarni o'z ota – onasiga, o'z yurtiga qarshi qayrab, ularning hayotiga, umriga zomin bo'lmoqda. Bunday keskin va tahlikali sharoitda biz ota – onalar, ustoz-murabbiylar, jamoatchilik, mahalla-ko'y bu masalada xushyorlik va ogohlikni yanada oshirishimiz kerak. Bolalarimizni birovlarining qo'lga berib qo'ymasdan, ularni o'zimiz tarbiyalashimiz lozim. Bugungi kunda yon – atrofimizda diniy eksterimizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, "ommaviy madaniyat" degan turli balo – qazolarning xavfi toboro kuchayib borayotganini hisobga oladigan bo'lsak, bu so'zlarning chuqur ma'nosi va ahamiyati yanada yaqqol ayon bo'ladi. "Haqiqatdan ham, hozirgi vaqtda yoshlar tarbiyasi biz uchun o'z dolzarbligi va ahamiyatini hech qachon yo'qotmaydigan masal bo'lib qolmoqda."¹ [1]

Aynan shu sabab ta'lim tizimida ijtimoiy-psixologik muhitni, psixologik xavfsizlik tizimini yaratish dolzarbdir. Ta'lim muassasi asosiy profilaktik tizimga aylanishi shart, ya'ni bir paytning o'zida o'quvchi shaxsining muammolarini yechishga yordam berishi lozim. Kuchli tayyorgarlikka ega o'qituvchi, ayniqsa maktab psixologi, bolaning xulq buzilishlarini oldini olishda asosiy rolga ega bulishi mumkin.

Respublikamizda o'smirlar suisidi bo'yicha olib borilgan psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, pedagoglar, ota-onalar va boshqa mutaxassislar suisidial xulq-atvor shakllari haqida yetarli ma'lumotga ega emas. O'z vaqtidagi psixologik yordam, o'smirlarni hayotning har qanday vaziyatlariga astoydil psixologik tayyorgarlik bunday nohush holatlarning oldini olgan bo'lar edi. Ta'lim tizimidagi suisid muammosining oldini olishning yechimi kadrlar masalasiga bog'lik, birinchi galda maktab psixologi, ukituvchi va tarbiyachini tayyorlash lozim. Pedagogika, psixologiya, medisinaga doir qushimcha tayyorgarliklar suisidial xatti - harakatga ega o'quvchi muammosining oldini olish va korreksiya qilish mohirlik bilan yechishga yordam beradi.

Bolalar va o'smirlarda o'z joniga qasd qilish holatlari kattalarnikidan farq qiladi. O'smirlar o'rtaidagi o'lim sabablarining 90 foizi, bu - yordamga muhtojlik, "Hayiqish» bo'lsa, faqat 10 foizi ixtiyoriy joniga qasd qilish holatidir.

Qadimgi yunon faylasuflari ham psixik holatlar muammosi bilan shug'ullanib ko'rganlar. "Holat" tushunchasi falsafiy tushuncha sifatida Kant va Gegel ishlarida ham keltirilgan. Psixik holatlarni izchil o'rganish U. Djemsdan boshlanadi. Bu sohadagi eng birinchi ilmiy ish O. A.

¹ "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi".

Sh. Mirziyoev . O'zbekiston - T.: 2017, 23 b.

Chernikovaning 1937 yilda bosilib chiqqan maqolasi bo'lib, u sportchining startdan oldingi hissiy holatlarini o'rganishga bag'ishlangan edi. Shundan so'ng sport psixologiyasida psixik holatlar A. S. Puni, F. S. Yegorov, V. V. Vasilev, Ya.B. Lextman, K. M. Smirnov, V. F. Spiridonov, A. N. Krestovnikov va boshqalarning ishlarida o'rganildi. V. A. Ganzenning fikricha, 1964 yilda N. D. Levitovning "Odamning psixik holatlari haqida" nomli kitobi nashr etilishi bilan bu muammoni o'rganish tarixida yangi davr boshlandi.

Biz yonida bo'lib yordam berolmaganimiz, ularni to'xtata olmaganimizni esa keyin anglab yetamiz. Ko'pincha bolaga mas'ul bo'lgan nafaqat ustoz-murabbiylar, balki ota-ona ham uning noumidlik chegarasiga borib qolganini bilmay qoladilar.

Ota-onalarning iztirobi cheksiz. Ularning ko'pchiligi tushunmovchilikda. Statistika ko'ra, 77 % oilada bola o'z joniga qasd qilish ostonasida turganligini ota-onalar hattoki sezishmagan ham. Bunday bolalarni qanday tushunish mumkin? Ularga qanday yordam bersa bo'ladi?

Joniga qasd qilish - o'lish maqsadida atayin o'ziga ziyon yetkazishdir. Hozirgi kungacha 15-44 yoshlilar orasida "Suisid" o'z joniga qasd qilishning uch xil sabablari aniqlangan. Bunday ishga qo'l urayotganlar odatda ruhan kuchli azoblanayotgan va stress holatida bo'lib, o'z muammolarini mustaqil yecha olmasligi, o'z joniga qasd qiluvchilarni ruhshunoslarning ta'kidlashicha, atrofdagilarning tushunmasligi, yolg'izlik, mehr- muhabbat yetishmasligi kabi sabablarga borib taqaladi.

Butun jahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra o'z joniga suiqasd qilishning 800 ta sabablari mavjud ekan, ulardan eng ko'p uchraydiganlari:

- 36 foizi - noma'lum sabablarga ko'ra;
- 19 foizi - jazodan qo'rqish;
- 18 foizi - ruhiy kechinmalar;
- 18 foizi - turmush, uy tashvishlari;
- 6 foizi - ehtirolarga berilish;
- 3 foizi - pul, mol-mulk yo'qotish. [5]

Afsuslar bo'lsinki, hayotning ba'zi qiyin, murakkab vaziyatlarida inson muammolarni qanday yechishni ham, bu muammolarni qanday bartaraf etishni ham bilmay, o'ylab qoladi. «Agar inson bo'lmaganida - muammo bo'lmasdi», «Men bo'lmaganimda - muammo bo'lmasdi» - degan insonlardagi mantiqiy mulohazalari hayotning qiyin vaziyatlarida suisidni tanlash to'g'ri yechimdir deb hisoblashadi.

Psixologik inqiroz xolatidagi insonga yaqinlari va kattalar tomonidan o'z vaqtida ko'rsatilgan psixologik yordam uning ijobiy holatga tushish imkoniyatini 90 foiz oshiradi, voqelikka munosabatini ijobiylashtirib, optimizm (nekinlik), hayotbaxsh omillar ustunligini beradi. Agarda o'spirinda o'z joniga qasd qilishga moyillik sezsangiz quyidagi maslahatlar vaziyatni o'zgartirishga yordam beradi.

Uni diqqat bilan tinglang, qalbimiz aziyat chekayotganda har birimizga bizni eshitishga tayyor odam kerak. Barcha imkoniyatingizni ishga solib, so'zlar ortida yashirib yotgan muammoni aniqlashga urinib ko'ring, o'zini keraksiz, ortiqcha his etayotgan odam uchun birov unga dalda bo'lishi va tushunishga harakat qilishi uni saqlab qolishda katta ruhlantiruvchi kuch bo'la oladi. Aynan, dalda berish orqali yolg'izlanib qolgan qalbiga yo'l topa olasiz

Bolaning hissiyoti va niyatning jiddiyligiga baho bering. Agarda unda o'ziga suiqasd qilish borasida aniq reja bo'lsa, ogoh bo'ling - vaziyat siz o'ylagandan ancha jiddiyoq. Emotsional tushkunlik xolati qanchalik chuqurligini aniqlang. O'spirin o'z joniga qasd qilish niyatiz xam

jiddiy qiyinchiliklarni boshidan kechirayotgan bo'lishi mumkin. Barcha shikoyat va nolishlarini diqqat bilan tinglang. U o'zining hislariga erk bermasligi va muammolari borligini sizga oshkor etmasligi bilan birga o'ta tushkunlik holatida bo'lishi mumkin.

Extiyotkor ravishda o'z joniga qasd qilishni o'ylamayotganligi xaqida so'rab biling. Tajribalar shuni kursatadiki, bu tarzdagi savollar ziyon yetkazmaydi.

Aksariyat xollarda o'spirin o'z muammolarini ochik-oydin ayta olganidan xursand bo'ladi. Bundan tashqari, bolaning o'zini his qilish xolatlari xaqida so'rab turish, kelajak xaqidagi fikrlarini bilish va kelgusi rejalarini tuzishi kerakligi xaqida eslatib turish kerak.

References:

1. Mirziyoev Sh.M "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi". T.: - O'zbekiston. 2017. 23 b.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: 2008.
3. Davletshin M.G., Do'stmuxammedova Sh., Mavlonov M., To'ychiyeva S. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. O'quv qo'llanma. – T., 2004.
4. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya va amaliyot. O'quv qo'llanma. – T., 2014.